KUTUBXONALARNING VUJUDGA KELISHI TARIXI

Toshtemirova Sevinch Jasur qizi – QarDU talabasi

Annotatsiya: Mazkur ishda kutubxonalarning paydo bo‘lishi, qadimgi dunyodagi dastlabki kutubxonalar, o‘rta asrlar davridagi kutubxonalar taraqqiyoti hamda zamonaviy axborot-kutubxona markazlarining shakllanishi haqida ma’lumot beriladi. Shuningdek, kutubxonalarning ilm-fan va madaniyat rivojidagi o‘rni yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Kutubxona, tarix, bilim maskani, qo‘lyozma, kitob, axborot markazi, madaniyat, ilm-fan, elektron kutubxona, ma’naviyat.

Аннотация :В данной работе рассматриваются возникновение библиотек, этапы их исторического развития, состояние библиотек в древние времена и средние века, а также роль современных библиотек в жизни общества. Также анализируется вклад библиотек в развитие науки, образования и культуры.

Ключевые слова:Библиотека, история, рукопись, книга, знание, информация, культура, образование, наука, электронная библиотека.

Annotation: This paper discusses the origin of libraries, the stages of their historical development, the condition of libraries in ancient and medieval times, and the role of modern libraries in society. It also analyzes the contribution of libraries to the development of science, education, and culture.

Keywords: Library, history, manuscript, book, knowledge, information, culture, education, science, electronic library.

Kirish:

Kutubxona insoniyat taraqqiyotining muhim maskanlaridan biri hisoblanadi. U ilm-fan, madaniyat va ma’naviyat rivojida katta ahamiyat kasb etib kelgan. Qadim zamonlardan boshlab odamlar o‘z bilimlarini saqlash, avlodlarga yetkazish va keng ommaga tarqatish maqsadida turli shakldagi kutubxonalarni tashkil etganlar. Dastlabki kutubxonalar loy taxtachalar, papiruslar va qo‘lyozma kitoblar

saqlanadigan joy bo‘lgan bo‘lsa, bugungi kunda zamonaviy kutubxonalar elektron resurslar, raqamli ma’lumotlar va internet xizmatlari bilan boyitilgan. Kutubxonalar jamiyatning intellektual salohiyatini oshirishda, yosh avlodni tarbiyalashda hamda ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Shu sababli kutubxona tarixini o‘rganish uning taraqqiyot bosqichlari va jamiyat hayotidagi rolini anglashda muhimdir.

Birinchi kutubxona 8000 yil oldin paydo bo‘lgan. Qadimgi Mesopotamiya aholisi loydan yasalgan yupqa lavhalarga “pona” deb nomlangan ingichka tayoqchalar yordamida yozishgan. Ularning yozish usuli “mixxat yozuvi” deb nomlanadi. Lavhalar olovda toblangan va ularning eng qimmatbaholari shikastlanmasligi uchun loydan tayyorlangan maxsus qutilarga joylashtirilgan. Arxeologlar saroylarda mavzulariga qarab saralangan holda saqlangan minglab bunday lavhalarni topishgan. Birinchi kutubxonalar shu tariqa paydo bo‘lgan.Qadimgi Misr kutubxonalari ibodatxonalarda bo‘lgan, ularni ruhoniylar qo‘riqlashgan. Misrliklar papirusga yozishgan, keyin uni tayoqcha atrofida o‘rab, sandiq yoki javonlarda saqlashgan. Eng mashhuri Iskandariyadagi (Misr) kutubxona edi. U taxminan miloddan avvalgi 300-yilda tashkil topgan. Bu kutubxonada 700 000 dan ortiq papirus o‘rami saqlangan. Barcha “kitoblar” 120 mavzu bo‘yicha tasniflangan va kataloglarda[2] bayon etilgan. Jamoat kutubxonalari qurishni birinchi bo‘lib qadimgi rimliklar o‘ylab topishgan. Yuliy Sezar jamoat kutubxonalarining butun tizimini yaratishni rejalashtirgan va vafotidan keyin bunday kutubxonalar katta shuhrat qozongan. Rimning boy aholisi kambag‘allar uchun maxsus kutubxonalar tashkil etishgan, shuningdek o‘zlari uchun ulkan kitoblar kolleksiyasini[3] to‘plashgan. IV asrga kelib Rimda 28 ta jamoat kutubxonasi mavjud bo‘lgan. Bizning davrimiz boshlarida kutubxonalar cherkov va monastirlarning ajralmas qismiga aylangan. Rohiblar kitoblarni o‘qib, nusxa olganlar: ko‘plab kutubxonalarning faoliyati ularning sa’y-harakatlari evaziga ta’minlangan. O‘rta asrlarning oxirida katta cherkovlar qurilgan paytda odamlar ular qoshida kichik kutubxonalar tashkil qilishni boshlagan. Universitetlar ham

kitob yig‘ishni boshlashgan. Parij, Geydelberg va Florensiya universitetlari “zanjirband qilingan” kitob to‘plamlari bilan mashhur bo‘lgan. Kitob tayyorlash shunchalik qiyin bo‘lganki, noxush holatlarning oldini olish uchun ular devorlarga katta zanjirlar bilan mixlab qo‘yilgan. 1400-yilga kelib Oksfordda joylashgan universitet kutubxonada kitoblarni to‘plashni boshlagan. Hozirda uning Bodleyn kutubxonasi butun dunyo universitet kutubxonalari orasida eng yirigi hisoblanadi. Biz bugungi kunda bilgan jamoat kutubxonalari atigi 100 yildan beri mavjud. XIX asrning boshlarida ingliz siyosatchilari xalqni kutubxonalarni qo‘llab-quvvatlashga dav’at etgan. Nihoyat 1850-yilda ingliz parlamenti kutubxonalarni tashkil qilishga ruxsat bergan.1

"ALEKSANDRIYA (ISKANDARIYA) KUTUBXONASI – ellinizm davrida bunyodga kelgan mashhur kutubxonalardan biri. Aleksandriya kutubxonasiga mil. av. 3-asrda ptolemeylar sulolasi davrida yashagan atoqli olim va adiblar (Zenodot, Aristarx Samosskiy, Kallimax va boshqalar) asos solgan. Bu yerda yunon fani va adabiyotiga doir ko‘plab qo‘lyozma asarlari to‘plangan. Bundan tashqari, Sharq tillaridagi kitoblar ham bo‘lgan. Kutubxona qoshida kitob ko‘chiruvchilar guruhi ishlagan, kutubxona katalogi tu-zilib, u vaqt-vaqti bilan to‘ldirib turilgan. Kutubxonada 700 ming jildga yaqin kitob saqlangan. A.(I.)k. uch asr davomida rivojlanib bordi. Mil. av. 48–47 yillar Aleksandriya urushi davrida ku-tubxona asosiy to‘plamining bir qismi yonginda kuyib ketdi. Misrni Rim impe-riyasi bosib olgach, A.(I.) k. o‘z mavqeini yo‘qota bordi, qolgan qismi 7–8-asrlarda tamomila tugatildi. zbekiston hududida miloddan avvalgi 1 ming yillikning so‘ngi asrlarida dastlabki kutubxonalar paydo bo‘lgan. Bular ilk kutubxonalar bo‘lib, kutub – arabcha «kitoblar», xona – forscha «uy», ya’ni kitob va hujjatlar saqlanadigan joy ma'nosini anglatdi. Markaziy Osiyo hududida yirik sulolaviy

1 Ahmedov B. O‘zbekiston tarixi manbalari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2001. – B. 45.

kutubxonalar, masjid-madrasalar qoshida kutubxonalar bo‘lganligi haqida aniq tarixiy manbalar mavjud.2

XI asrning oxiriga kelib O‘rta Osiyo hududida Somoniylar davlati yuzaga kelgan. Somoniylar davrida Movarounnaxr, Samarqand, Buxoroda fan va madaniyat rivojlana borgan. Bu davrda ushbu davlatda juda ko‘p mashhur qomusiy olimlar yashab ijod etgan. Buxoroning mahobatli markazi, keng maydonning kunchiqar tarafida muhtasham ark turadi. Ark darvozasidan kirganda to‘g‘ridagi yo‘l bir ko‘hna binoga eltadi. Uning qalin devorlari boy xazinani qo‘riqlaydi. Bu bebaho boyliklar jam bo‘lgan xazina Buxoro kutubxonasi, bu kutubxona X asrdagi mashhur kutubxonalardan biridir. Xorazm kutubxonalaridan yana biri bu Xivadagi Shaxobuddin kutubxonasidir. «Bunday kutubxona bundan oldin ham, keyin ham bo‘lmagan, chunki undagi qo‘lyozma asarlar fondi Marvdagi kutubxonadan qolishmas edi», deb aytgan edi Nasafiy. 3

1. Amir Temur (1336-1405) avval vatani Shahrisabzda, so‘ng mamlakat poytaxti Samarqandda saroy kutubxonasi tashkil qildi va buyuk sohibqiron davrida Samarqand shahridan kitob olib chiqish man etilgan, kitoblar tengsiz boylik sifatida qo‘riqlangan. O‘rta Osiyoning barcha hududida shayboniylar davrigacha ham kutubxonalar mavjud bo‘lib, madaniyatning o‘sishidan kutubxonalar faoliyati yanada quloch yoyib borgan. Saroy kutubxonalari bilan bir qatorda madrasa, masjid va shaxsiy kutubxonalar qaror topa boshlagan. Ulug‘bek Samarqand hukmdori bo‘lib, bu yerda u katta ilmiy ishlar bilan shug‘ullangan. Samarqandda u dunyoning eng ilg‘or ilmiy markazlaridan birini yaratdi va 1424–1429-yillarda ajoyib Samarqand rasadxonasi qurildi. Ushbu rasadxona dunyodagi eng katta va aniq astronomik asbob-uskunalardan biri bo‘lgan va unda 1018 ga yaqin yulduzning koordinatalari o‘lchangan. U

2 Azamat Ziyo. O‘zbek davlatchiligi tarixi. – Toshkent: Sharq, 2000. – B. 78.
3 Saidov A. Kutubxonashunoslik asoslari. – Toshkent: Fan, 2012. – B. 15–18.

Quroni, Ptolemey va boshqa olimlarning asarlaridan ilmiy tekshirishlarini olib borgan.Ulug‘bek nafaqat olim, balki iste’dodli hukmdor ham edi. U ilm-fan va madaniyat rivojiga katta hissa qo‘shgan, Samarqand va boshqa shaharlarda ilmiy va madaniy hayotni jonlantirish uchun olimlar va shoirlarni o‘z atrofiga to‘plagan. Ulug'bek nafaqat buyuk davlat arbobi, balki astronom va matematik sifatida ham tarixda o'chmas iz qoldirgan. Uning ilmiy merosi O'rta Osiyo va butun musulmon olamining ilm-fan taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan. Xorazmda Ma’mun Akademiyasi, Buxoroda Abdulazizxon kutubxonasi, Samarqandda Mirzo Ulug‘bek kutubxonasi va boshqa kutubxonalar ilmiy markaz bo‘lib xizmat qilgan.4

Xulosa: Shunday qilib kutubxonalar insoniyat sivilizatsiyasining eng muhim ma’naviy va ilmiy maskanlaridan biri bo‘lib kelgan. Qadimgi Aleksandriya kutubxonasi dunyo ilm-fani va madaniy merosini jamlagan yirik markaz sifatida tarixda alohida o‘rin egallaydi. Sharq mamlakatlarida, xususan, ilk musulmon davlatchiligi hamda Somoniylar davrida kutubxonalar ilm-ma’rifat rivojining asosiy o‘choqlaridan biri bo‘lgan. Bu davrda ko‘plab olimlar yetishib chiqib, bebaho asarlar yaratilgan. Temuriylar davrida esa kutubxonalar yanada taraqqiy etib, Samarqand va Hirot kabi shaharlarda boy kitob xazinalari tashkil etilgan. Ayniqsa, ilm-fan, adabiyot va san’at rivojiga katta e’tibor berilishi natijasida kutubxonalar jamiyat taraqqiyotining muhim qismiga aylangan. Demak, turli davrlarda shakllangan kutubxonalar bugungi zamonaviy axborot markazlarining tarixiy asosi hisoblanadi. Ularning boy merosini asrab-avaylash, rivojlantirish va kelajak avlodga yetkazish har bir jamiyatning muhim vazifasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ahmedov B. O‘zbekiston tarixi manbalari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2001.

4 Britannica Encyclopedia. Library History. – London, 2010. – P. 124.

2. Azamat Ziyo. O‘zbek davlatchiligi tarixi. – Toshkent: Sharq, 2000.

3. Saidov A. Kutubxonashunoslik asoslari. – Toshkent: Fan, 2012.

4. Britannica Encyclopedia. Library History. – London, 2010.

5. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Kutubxona maqolasi. – Toshkent, 2003.